

MAKTABGACHA TA'LIM TASKILOTI PEDAGOGLARNING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKILLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

*Termiz davlat Pedagogika instituti Maktabgacha talim fakulteti Maktabgacha ta'lim
metodikasi kafedrasasi o'qituvchisi*

Mamatqulova Shaxnoza O'ktam qizi

Kalit so'zlar: *talim, tarbiya, kompetentlik, hamkorlik, jarayon, pedagog, kasbiy sifat, ,
psixik rivojlanish.*

Annotatsiya: *Ayni damda jadallashib, rivojlanayotgan yurtimizda kattadan-katta o'zgarishlar bo'layotgan bir vaqtda maktabgacha talim tizimini ham tubdan isloh qilish masalalari provard maqsadga aylandi. 2016-yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha talim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirliri to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarorining elon qilinishi ushbu sohani tubdan isloh qilish, maktabgacha talim tashkilotlari ishini har tomonlama takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga talim-tarbiya berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab talimiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini qayta o'rganish vazifasini qo'ydi. Shunga ko'ra pedagoglar va mutaxassislar xorij talimi tajribalarini puxta o'rgandilar va o'z pedagogik jarayonda qo'llay boshladilar.*

Kompetentlikni baholashda alohida olingan biror-bir layoqatlilik darajasini emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan uzoq vaqt davomida turli xildagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to'liq to'plamini nazarda tutish kerak bo'ladi. Bunda inson duch kelgan muayyan vaziyat uning rivojlanishiga, qadriyatlarining shakllanishiga va yangi kompetentliklarni egallashiga bevosita ta'sir etadi. Kompetentlikning mavjudligi inson mehnatining natijasiga qarab aniqlanadi. Har bir mutaxassisning kompetentlilik darajasi, uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi. Kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo'lib, uning o'ziga xos tomonlari shuki, kompetentli mutaxassisning bilimlari tezkor va harakatchan bo'lib, ular doimo yangilanib turadi. Muammoning mazmunini tushunishning o'zi yetarli bo'lmay, uni jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, shu bilan birga, kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto'g'ri yo'llarni chiqarib tashlash, ya'ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi. Pedagogilik kasbi jamiyatdagi eng mas'uliyatli kasblardan biri bo'lib, qadimdan unga katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, rivojlanayotgan mustaqil mamlakatimizda o'z kasbining ustasi, yuksak zamonaviy kasbiy bilimlarga ega bo'lgan, tashabbuskor, davr va jamiyat talablarini nozik va zukko tushuna oladigan, muxtasar qilib aytganda kasbiy jihatdan kompetentli pedagog kadrlarga katta ehtiyoj mavjud.

Ushbu masalaning nazariy jihatlarini tahlil qilishga o'tishdan oldin uning lug'aviy tomonlariga nazar tashlasak.

Pedagogik kompetentlik (lot. kasbiy moslik) – pedagogidagi ijodiy imkoniyatlarning yanada kengroq tasarruf etilishi, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni yosh mutaxassislariga yetkazish, ular bilan pedagogik muloqotga kirishish mahorati bo'lib hisoblanadi.

Mazkur pedagogik masala dolzarbligini e'tirof etgan holda uning nazariy jihatdan o'rganilganligi borasida fikr yuritamiz. Pedagogilik kasbi o'zida yuksak ijtimoiy mas'uliyatni aks ettirganligi bois, bu borada bildirilgan ilmiy fikrlar, g'oyalar va nazariyalarning ildizi qadim moziyga borib taqaladi.

Pedagogik faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat rivojini ta'minlovchi kuch hisoblanib, unga katta mas'uliyat yuklangan. Bu to'g'rida Sharqda, zardushtiylik ta'limotining manbai "Avesto"da, Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim" va "Hadisi sharif"da, O'rta Osiyo uyg'onish davri mutafakkirlari Abu Nasr al-Forobiy (873-930), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Burxoniddin Zarnudjiy (XII asr), Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (1184-1292), Alisher Navoiy (1441-1501) larning badiiy – falsafiy asarlarida, G'arbda Qadimgi Yunoniston va Rimda Demokrit (460-370), Suqrot (469-339), Aflotun (427-347), Arastu (383-322),

Mark Fabiy Kvintilian (42-118), Yan Amos Komenskiy (1592-1670), Adolf Disterverg (1790-1866) kabi buyuk faylasuf, pedagog, mutafakkirlarning ta'limotlarida, ma'rifiy-axloqiy asarlarida maydonga kelib, katta pozitiv ijtimoiy rezonansga sabab bo'lgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiyoti sharoitida pedagogik jarayonga "Onalar maktabi", "Buyuk didaktika" (Yan Amos Komenskiy),

"Pedagogilar uchun 33 qoida" (Adolf Disterverg), "Pedagogiga ta'lim yo'lida o'quv qo'llanma", "O'rtoq, pedagogi, fan tanlash haqida" (Burhoniddin Varnudjiy), "Nozik iboralar" (Az Zamaxshariy), "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos

Hojib) kabi pedagogik asarlar paydo bo'lgan.

Alloma Burhoniddin Zarnudjiy (XII asr) – «Pedagogiga ta'lim yo'lida qo'llanma» asarida pedagoglar quyidagilarga e'tibor berishi lozimligini ta'kidlaydi.

- muallim bilimdon, tajribali, oliyanob bo'lishi lozim;
- muallim qanoat, sabr, muruvvatli, bilimni har kuni takrorlashi lozim;
- o'z fani va kasbidan to'la qanoat hosil qilishi; - aql-farosat egasi bo'lishi darkor.

O'zbek xalq pedagogikasiga oid asarlarda murabbiy-ustoz eng hurmatli, mo'tabar inson sifatida ulug'lanadi. Mashhur Rim pedagogi Mark Fabiy Kvintilian o'zining "Notiqni tarbiyalash to'g'risida" nomli pedagogik asarida pedagogik faoliyatda kasbiy moslik tushunchasi va uning ijtimoiy mohiyati to'g'risida qimmatli fikrlarni aytgan. U pedagogik faoliyatning mohiyati xususida to'xtalib, pedagog o'zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotkorlik bilan yondashishi, buning uchun o'zi o'qimishli, bilimdon, ijtimoiy fanlar asosini mukammal egallagan, madaniyatli inson va o'z shogirdlari uchun o'rnak bo'lishi va ularni sinchiklab o'rganishi lozim

Qadimgi Yunon faylasufi Platon (eramizdan avvalgi 427-348 – yillar) – “agar kavushduz yomon usta bo’lsa, davlat bundan unchalik zarar ko’rmaydi, fuqarolar birmuncha yomonroq kiyinib yuradilar, xolos. Ammo bolalarni tarbiyalovchi kishi o’z vazifalarini yomon bajarsa, mamlakatda nodon va yolg’onchi odamlarning butun bir avlodi vujudga keladi”, - deganda pedagogik faoliyat bilan shug’ullanuvchilar pedagogik kompetentlikka ega bo’lishi, ular o’z ishining mohir ustasi bo’lishi lozimligini qayd etadi.

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) pedagogik faoliyatni “er yuzidagi har qanday kasbdan yuqoriroq turadigan faxrli faoliyat” deb hisoblab, pedagog mehnatiga katta ahamiyat beradi. Yan Amos Komenskiy bir tomondan aholining pedagogi – tarbiyachiga hurmat bilan qarashi lozimligini talab qilsa, ikkinchi tomondan esa pedagogining o’zi ham jamiyatda qanday muhim vazifani bajarayotganligini tushunib olishi va o’z qadr-qimmatini yaxshi bilib olib ishlashi lozim, deb ta’kidlaydi. “Pedagog, - deb yozadi Yan Amos Komenskiy, sof vijdonli, ishchan, sabotli, matonatli, o’quvchilarga o’zi singdirishi lozim bo’lgan fazilatlarining ibratli kishisi bo’lishi, keng ma’lumotli va mehnatga layoqatli inson bo’lishi lozim. U o’z fanini behad sevishi, o’quvchilarga bamisoli otalardek muomalada bo’lishi va har bir ilm oluvchi qalbida bilimga havas tug’dirishi lozim” degan.

Pedagogik faoliyat hamma davrda aniq tarixiy tavsifga ega va shunday bo’lib qoladi, chunonchi u yoshlar tarbiyasi bilan bog’liq. Tarbiya va pedagogik faoliyat bir zanjirning ikki halqasidir. Tarbiya ijtimoiy, tarixiy tavsif kasb etgani singari pedagogik faoliyat ham ijtimoiy-tarixiy tavsifga ega.

Pedagog shaxsining kasbiy sifatlari, qobiliyatlarini o’rganish borasidagi ilk tadqiqotlar o’tgan asrning 60-70 yillarida paydo bo’la boshladi. Hozirgi kunda darslarda ilg’or pedagogik va innovatsion axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish jarayonini baholashning nazariy jihatlarini o’rganish bo’yicha faol ishlar olib borilmoqda. V.M.Korotkov, B.T.Lixachyovlar, V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavtsev,

A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabilarning ishlari shular jumlasiga kiradi.

Pedagog kasbi egalari jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlari, kuchlari, ijtimoiy - madaniy va davlat ehtiyojlaridan xabardor bo’lishi, o’z faoliyati jarayonida ularga tayanishi lozim. Zero, u jamiyat hisobidan ta’minlanib, uning ijtimoiy buyurtmasini bajaradi, yoshlarning jamiyat boyligini asrab – avaylashga, ko’paytirishga va shaxsiy fazilatlarini tarkib toptirishga rahbarlik qiladi.

Pedagogik faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat mafkurasi bilan bog’liq holda yoshlar ijtimoiy ongining o’sishi ustida g’amxo’rlik qiladi, ularni haqiqiy insonparvar, demokrat, milliy istiqlol mafkurasi g’oyalarini himoya qilishga tayyorlash uchun xizmat qiladi.

Eng avvalo pedagog shuni chuqur anglashi lozimki, u jamiyatning ishonchli vakili, zero, jamiyat unga o’zining eng qimmatli boyligi, umidi, ishonchi va kelajagi bo’lgan bolalarini topshiradi. Bu oliyjanob va murakkab kasb unga hayotini bag’ishlagan har bir kishidan

doimiy ijod, izlanish, ulkan sahovatli qalb, bolalarga muhabbat, o'z kasbiga cheksiz sadoqatni talab etadi.

Hozirgi kunda kasbiy kompetentlik pedagog tomonidan ta'lim jarayoni samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlardan samarali foydalanish jarayonining nazariy jihatlarini o'rganish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. V.M.Korotkov, B.T.Lixachyov, V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavtsev, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov kabilarning ishlari shular jumlasiga kiradi. Ushbu tadqiqotlarda pedagogining kasbiy mosligi – kompetentligiga erishish uchun zarur bo'lgan metodik ishlarining usul va yo'llari keltirilgan.

Insonni har tomonlama tarbiyalash va ta'lim berish insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Ta'lim-tarbiya ishi bilan mashg'ul bo'lgan pedagogining faoliyati ta'lim uchun sharoit yaratishga, o'quv jarayonida shaxsning ehtiyoj va ist'edodini shakllanishiga yo'llangan bo'lishi kerak.

Ya'ni, pedagog faoliyati doimo quyidagi didaktik masalalarni yechishga qaratiladi: “nimani o'qitish kerak?”, “kimni o'qitish kerak?” va “qanday o'qitish kerak?”.

Bu savollarga to'g'ri echim topish, u yoki bu vaziyatlardan pedagogik maqsadga muvofiq yo'l topa olish pedagogidan yuksak mahorat va chuqur kasbiy bilimni talab etadi. Bu muammolarning echimi pedagogik psixologiya fani asosiy qonunlarini bilishga asoslanadi.

Hozirda tadqiqot muammosiga oid izlanishlar ya'ni, yosh pedagoglarining kasbiy kompetentligi masalasi tahlil etilgan ilmiy adabiyotlar mavjud. Masalan, Usanova O.N., Morozova N.Yu. lar tomonidan o'quvchilarga parallel xizmatlar ko'rinishidagi turli tashkiliy tizimlar majmui yaratilishi, Bityanov M.R., Xutornaya M.A. va Konovalova N.L. lar tomonidan tibbiy–ijtimoiy va psixologik-pedagogik maxsus markazlarning barpo etilishi kabilik fikrimizga dalildir. Dubrovina I.V., Ovcharova R.V., Maxnovets S.N., Bulanova O.E., Shulga T.I. tomonidan turli yosh guruhlarini tashkil etuvchi yosh pedagoglar uchun o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish mahoratini shakllantirish tamoyillari tezkorlik bilan ishlab chiqildi.

Jamiyatda ro'y berayotgan sifatli o'zgarishlarni hisobga olgan holda pedagog kadrlarni tayyorlashga tayangan turli o'quv dasturlarining Glotochkin A.D., Zabrodin Yu.M., Sosnovskiy B.A., Derkach A.A., Bodalyov A.A., Samoukina N.V. va Gromkova M.T. lar tomonidan havola qilinishi bir muncha ijobiy natijalar berdi. V.S.Bezrukova kasbiy kompetentlik tushunchasida “savodli darajada qaror qabul qilishga, baho va fikr bildirishga imkon yaratadigan kasbiy jihatdan yuqori darajadagi bilim va malakalar majmuasini tushunadi. E.F.Eser va O.N.Shaxmatova esa kasbiy kompetentsiya deganda, kasbiy bilim va malakalar yaxlitligini, shuningdek, kasbiy faoliyatni bajarish usullarini ko'zda tutadi.

Faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar
B.G.Ananyev, A.Disterverg, P.G.Redkin, K.D.Ushinskiy, L.N.Ruvinskiy,

G.M.Andreyeva, N.V.Kuzmina, V.Slastenin, F.N.Gonobolin, A.A.Bodalyov,
E.V.Shoroxova, A.V.Vedenov, Yu.M.Zabrodin, A.G.Kovalyov,
I.S.Kon,

T.A.Kitvel, V.S.Merlin, V.N.Myasishev, I.P.Pavlov, K.K.Platonov, E.D.Parigin,
S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov, I.Ayzenk, M.Fishbayn, T.Maslou va boshqalar o'z ish maqsadlariga asoslanib pedagogik munosabatini turli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot obyektiga aylantirdilar va ma'lum darajada nazariy fundamental asoslar yaratdilar.

M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova,
R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, N.S.Safoyev, N.A.Yaxyarov, G.Sultonova, S.Rajabov,
M.Pirmuhammedovalar rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma'lum darajada katta e'tibor qaratildi.

Masalan, R.Z.Gaynutdinov yosh mutaxasislarning "Men—konseptsiya" sig'a o'z munosabatini bildirib, uning namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagilarni kiritdi.

☒ Milliy qadriyatlar bilan muvofiq keluvchi shaxsning namoyon bo'lishini ta'minlovchi etnopsixologik omillar - katta yoshdagilar, ma'lumotli odamlar va ular qatorida pedagogini ham hurmat qilish;

☒ Harakat va xulq—atvor usullariga ishonmaslik, vazminlik.

Jumladan, Yu.P.Azarov pedagogik kompetentligini uning o'quvchi shaxsini intellektual nuqtai nazardan rivojlantirish jihatidan tadqiq etadi. V.A.Slastenin esa pedagogida kompetentlik shakllanishini kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish jarayonida ko'radi. V.A.Kan-Kalik pedagogik kompetentlikni pedagogik muloqot samaradorligida deb hisoblaydi. V.L.Marishuk pedagogida kompetentlikni shakllantirishni uning psixologik bilimlari mavjudligida ko'radi. L.A.Shostakovich esa o'qitish va mehnat faoliyati jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik sharoitlari masalasini o'rgandi. V.G.Rindak va I.D.Lushnikov uzluksiz ta'lim jarayonida pedagogi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish masalasini o'rgandilar.

Z.D.Jukovskaya pedagog kompetentlikni shakllantirish tizimini ishlab chiqish muammosini o'rganib, pedagog va talabani "nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish"ning subyektlari, haqida aydi.

G.V.Akopov ta'limning ijtimoiy psixologiyasi yo'nalishidagi tadqiqotida pedagogik faoliyatning natijasi va ijtimoiy psixologik mohiyatini muloqotda namoyon bo'luvchi kommunikativ, ya'ni shaxslar orasidagi aloqa almashuv deb biladi. Tadqiqotchi N.N.Lagusev o'z ilmiy tadqiqoti natijalariga ko'ra, pedagogi nufuzi (avtoritet) uning ijodiy faoliyati darajasi bilan belgilanishi qirralarini ko'rsatib berdi. Tadqiqotchi N.K.Baklanova shunday xulosaga keldi: kasbiy yo'nalganlik, kasbiy mahorat va kasbiy tafakkur – pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy qismlaridir, ularni rivojlantirish kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga olib kelishi mumkin.

Aytish lozimki, pedagogik kompetentlikni shakllantirish muammosi bo'yicha turli tadqiqotchilar tomonidan ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlari bajarildi va muhim ilmiy pedagogik va psixologik xulosalarga erishildi.

Umuman, mamlakatimiz va xorijda amalga oshirilgan, zamonaviy ilmiy izlanishlar va tadqiqotchilarning erishgan ilmiy psixologik xulosalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, kasbiy kompetentlik, kasbiy moslik va professional sifatlarni shakllantirish ta'lim samaradorligini yanada oshirishda muhim omil bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2707-son qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora -tadbirlar to'g'risida "gi PQ-3261-son qarori

3. "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4312 –son qarori.

4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmaskuch,-T.:Ma'naviyat,2008.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasi,29 .12.2020 y

6..IMPROVING THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF FIRST-YEAR CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION M Shakhnoza - International Journal of Multidisciplinary Research and ..., 2022

7. MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDAGI BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI, YANGILIKLARI VA YUTUQLARI. A Nilufar, M Shaxnoza - Journal of Universal Science Research, 2023

.8 ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA STEAM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO 'LLARI. S.A.Abdumajitova. Educational Research in Universal Sciences 2 (6), 354-360

9. WAYS OF USING STEAM TECHNOLOGIES IN MODERN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. S.A. Abdumajitova. Educational Research in Universal Sciences 2 (6), 349-353

10. THE NEED TO USE STEAM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION. A.S.Abdukasimovna. Scientific Impulse 1 (9), 1736-1741

11. МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДОШКОЛЬНИКОВ. С.А.Абдумажитова. Scientific Impulse 1 (9), 1071-1076

12. PEDAGOGICAL CONDITIONS OF EDUCATIONAL ACTIVITY IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. A.S.Abdukasimovna. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 25-30

13. МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O’QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH JARAYONI A.S.Abduqosimovna. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 111-118

14 STEAM-ТЕХНОЛОГИЯ КАК ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ. С Абдумажитова. Innovations in Technology and Science Education 2 (8), 429-442